

OZODLIKNI CHEKLASH TARIQASIDAGI JAZONING NAZORAT QILISH

Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna

IV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Ibodullaev Javohir Xamidullaevich

O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi kursanti

Аннотация: Мақола Ўзбекистон Республикаси жиноий жазолар тизимида, озодликни чеклаш жазосининг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинган. Ушбу жазо турининг норматив-ҳуқуқий асослари, мақсадлари, мазмуни ва ижро этиши тартиби кўриб чиқилган. Шунингдек, Ички ишлар органларининг озодликни чеклаш жазосини ижросини таъминлаш ва шахсга нисбатан белгиланган чеклов ва мажбуриятларни назорат қилишдаги аҳамиятига алоҳида эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: озодликни чеклаш, жиноий жазо, пробацция, ички ишлар органлари, чеклов ва мажбуриятлар, жазо ижросини таъминлаш.

Аннотация: В статье анализируется роль и значение наказания в виде ограничения свободы в системе уголовных наказаний Республики Узбекистан. Рассмотрены нормативно-правовые основы, цели, содержание и порядок исполнения данного вида наказания. Также особое внимание уделено роли органов внутренних дел в обеспечении исполнения наказания в виде ограничения свободы и контроле за ограничениями и обязательствами, установленными в отношении личности.

Ключевые слова: ограничение свободы, уголовное наказание, пробацция, органы внутренних дел, ограничения и обязанности, обеспечение исполнения наказания.

Abstract: The article analyzes the role and significance of restriction of liberty in the system of criminal punishments of the Republic of Uzbekistan. The regulatory and legal basis, goals, content, and procedure for the execution of this type of punishment are considered. Special attention was also paid to the role of internal affairs bodies in ensuring the execution of punishment in the form of restriction of liberty and monitoring the restrictions and obligations imposed on individuals.

Keywords: restriction of liberty, criminal punishment, probation, internal affairs bodies, restrictions and obligations, ensuring the execution of punishment.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligida ozodlikni cheklash jazosi insonparvarlik prinsipiga asoslangan zamonaviy jazo turi hisoblanadi. Bu jazo mahkumning ozodligini to'liq mahrum qilmasdan, uning harakat erkinligini ma'lum darajada cheklash orqali axloqiy tuzatish va jamiyatga qaytarishni maqsad qiladi. Jazoning samarali ijro etilishi esa probatsiya organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga bog'liq¹.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 10 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2015. – № 32. – 425-м.

Nazoratning huquqiy asoslari

Ozodlikni cheklash jazosi Jinoyat kodeksining 48¹-moddasi va Jinoyat-ijroiya kodeksining tegishli normalariga muvofiq o'taladi. Jazo mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining probatsiya bo'linmasi tomonidan nazorat qilinadi.

2024 yil 7 avgustda qabul qilingan «Probatsiya to'g'risida»gi O'RQ-938-sonli Qonun va 2025 yildagi tegishli yo'riqnomalar probatsiya nazoratining yagona tartibini belgilab berdi.

Nazorat qanday amalga oshiriladi?

Probatsiya xodimlari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Sud hukmidagi cheklovlarga (yashash joyidan chiqmaslik, muayyan vaqtda uyda bo'lish, taqiqlangan joylarga bormaslik va boshqalar) rioya etilishini tekshirish;
- Mahkumning xulq-atvorini muntazam o'rganish va hisobga olish;
- Yashash joyiga (uyga) tekshiruvlar o'tkazish;
- Ish yoki o'qish joyidan ma'lumotlar olish;
- Takroriy huquqbuzarlik xavfini baholash va profilaktika ishlarini olib borish;
- Mahkumga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish va ijtimoiy moslashtirish dasturlarini amalga oshirish².

Ozodlikni cheklash bir oydan besh yilgacha muddatga tayinlanadi hamda sud tomonidan belgilanadigan organlar nazorati ostida o'taladi. Ozodlikni cheklash, uni mahkumning yashash joyida o'tash shartlari sodir etilgan qilmishning xususiyati va sud chiqargan qarorni ijro etishdan bo'yin tovlashning oldini olish hisobga olingan holda sud tomonidan belgilanadi.

Qo'llanilayotgan taqiqning (cheklashning) xususiyatlarini hisobga olgan holda, sud mahkumning zimmasiga quyidagi qo'shimcha taqiqlarni (cheklashlarni) yuklashi mumkin:

- muayyan joylarga bormaslik;
- ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik;
- muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaslik;
- muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik;
- transport vositasini boshqarmaslik;
- mahkumlarni nazorat qiluvchi organning roziligisiz yashash joyini, ish va (yoki) o'qish joyini o'zgartirmaslik, tegishli ma'muriy hududdan tashqariga chiqmaslik;
- muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik;
- aloqa vositalaridan, shu jumladan Internetdan foydalanmaslik;
- alkogolli ichimliklar iste'mol qilmaslik.

Sud ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxsning zimmasiga o'zi yetkazgan moddiy va ma'naviy zararning o'rnini qoplash, ishga yoki o'qishga joylashish majburiyatlarini, shuningdek uning tuzalishiga ko'maklashuvchi boshqa majburiyatlarni yuklashi mumkin³.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo chorasini qo'llanilishi bo'yicha voyaga

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Probatsiya to'g'risida”, O'RQ – 938, 07.08.2024-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>

³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent. <https://www.lex.uz/acts/111453>

yetmaganlar uchun maxsus normalar mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 81-moddasiga ko‘ra, Ozodlikni cheklash voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi⁴.

O‘zbekiston Respublikasining 2025 yil 23 oktabr kunidagi “Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining jinoyat kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar sodir etgan o‘ta og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun jazoni o‘tab bo‘lgan shaxs sudlanmagan deb hisoblanishini, voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklashning hamda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddati olti oydan bir oygacha qisqartirilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

Ushbu Qonun voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligini yanada liberallashtirishga xizmat qiladi va o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun jazoni o‘tab bo‘lgan shaxsga hayotini sudlanganlik tamg‘asidan holi tarzda davom ettirishi uchun sharoit yaratadi⁵.

Ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan shaxs jazoni o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o‘z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, sud ozodlikni cheklash jazosining o‘talmay qolgan muddatini boshqa turdagi jazo bilan almashtirishi mumkin. Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlash vaqti o‘talgan jazo muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.

Ushbu ma‘muriy cheklovlar nazorat ostidagi shaxsning turmush tarziga, oilaviy ahvoliga, shuningdek uning shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlarga qarab to‘liq hajmda yoki alohida-alohida tarzda belgilanadi. Ma‘muriy cheklovlarning ro‘yxati uzil-kesil bo‘lib, unga qo‘shimchalar kiritilishi yoki u kengaytirib sharhlanishi mumkin emas. Qo‘llaniladigan ma‘muriy cheklovlar sud tomonidan ichki ishlar organining taqdimnomasiga yoki nazorat ostidagi shaxsning yoxud uning vakilining arizasiga, shuningdek mehnat jamoasining, jamoat birlashmasining va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining iltimosnomasiga binoan nazorat ostidagi shaxsning turmush tarzi va xulq-atvori haqidagi ma‘lumotlar inobatga olingan holda qisman bekor qilinishi mumkin⁶.

Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish va ta‘minlash Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining Maxsus qismiga “Ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish”-deb nomlangan 8¹-bobi asosida tartibga solingan bo‘lib, 44¹-moddasida ozodlikni cheklash jazosini ijro etish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish mahkumning yashash joyidagi ichki

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent. <https://www.lex.uz/acts/111453>

⁵ Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 23 октябр кундаги “Вояга етмаганларга нисбатан жиноий жавобгарлик янада либераллаштирилиши муносабати билан ўзбекистон республикасининг жиноят кодексиغا қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги 1092-сон қонуни/ <https://lex.uz/uz/docs/7788391>

⁶ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрелдаги “Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий нazorat тўғрисида”ги ЎРҚ-532-сон қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.04.2019 й., 03/19/532/2873-сон.

ishlar organi tomonidan yoki sud belgilaydigan, mahkumlarning sud belgilagan taqiqlarga (cheklashlarga) rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshiradigan boshqa organ tomonidan amalga oshiriladi⁷.

Ozodlikni cheklash jazosini ijro etilishini ta'minlashda probatsiya xizmati quyidagi huquqlarga ega:

✓ ozodlikni cheklash tarzidagi jazoga hukm qilingan, o'ziga nisbatan muayyan buyumlarga ega bo'lishga yoki ularni saqlashga doir sud tomonidan taqiq (cheklov) belgilangan shaxslarni ushbu taqiqqa (cheklovga) rioya etilayotganligini tekshirish maqsadida shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ularning ashyolarini, qo'l yukini, bagajini ko'zdan kechirish;

✓ belgilangan, shuningdek o'ziga nisbatan tuman (shahar) probatsiya bo'linmasining roziligisiz yashash joyini o'zgartirishga, tegishli ma'muriy hudud doirasidan tashqariga chiqishga doir taqiqlar (cheklovlar) belgilangan probatsiya nazoratidagi shaxslarning mazkur taqiqlarga (cheklovlarga) va majburiyatlarga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida probatsiya nazoratidagi shaxslarning yashash joyini ushbu Qonunda belgilangan tartibda tekshirishni amalga oshirish;

✓ probatsiya nazoratidagi shaxslarning mastlik holatini sertifikatlashtirilgan maxsus texnik vosita yordamida yoki tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida mas'ul xodimlar yordamida aniqlash;

O'zbekiston Respublikasining 15 noyabr 2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 206 va 248-moddalariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi Qonuniga asosan, MJtKning 1852 va 187-moddalarida (probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, ichki ishlar organlari probatsiya xizmatining katta inspektorlari va inspektorlari ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va ma'muriy jazo qo'llash vakolatlari berildi⁸.

Nazoratning samarali usullaridan biri — elektron kuzatuv vositasi (elektron braslet) orqali masofadan turib monitoring qilishdir. Bu tizim mahkumning joylashuvini real vaqtda kuzatib boradi va cheklovlar buzilganda signal beradi⁹.

Mahkumning majburiyatlari

Ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan shaxs:

- Probatsiya xodimining chaqiruvlariga kelishi shart;
- Sud va probatsiya organlarining talablarini bajarishi;
- Yashash joyini o'zgartirishda ruxsat olishi;
- Xulq-atvorini qonunga muvofiq yuritishi kerak.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>

⁸ Д.Н.Умаралиева. Т.М.Шафиев. Значение и специфика организации сотрудничества органов местного самоуправления и Неправительственных организаций в работе с лицами, находящимися под контролем службы пробации. <http://newconference.ru/index.php/Russia/article/view/199>

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2024 йил 5 декабрьдаги "Уй қамоғи эҳтиёт чораси қўлланилган ва озодликни чеклаш жазоси тайинланган шахсларни электрон braslet орқали масофадан туриб назорат қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги ВМҚ-813-сон қарори // URL: <http://lex.uz/docs/7249299>

Nazoratni buzish oqibatlari

Agar mahkum muntazam ravishda cheklovlarni buzsa, probatsiya organi sudga jazoni og‘irroq turga (ozodlikdan mahrum qilishga) almashtirish to‘g‘risida taqdimnoma kiritadi. Bunday holatlarda jazoning o‘talmagan qismi qattiqroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

Samaradorligi va ahamiyati

Probatsiya nazorati faqat jazoning ijrosini ta‘minlash bilan chegarilanmaydi. U mahkumning ijtimoiy rehabilitatsiyasiga, oilaviy aloqalarni saqlashga, ishga joylashishga va jamiyatga foydali fuqaro bo‘lib qaytishiga yordam beradi. Bu usul jinoyatchilikning oldini olishda va jazoni individuallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Ozodlikni cheklash jazosini nazorat qilish — davlatning insonparvar siyosatining amaliy ifodasi. Probatsiya xizmatining samarali faoliyati orqali jazo nafaqat jazolash, balki tuzatish va qayta o‘qitish funksiyasini ham bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 30.04.2023 – Toshkent
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent.
<https://www.lex.uz/acts/111453>
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni – “Probatsiya to‘g‘risida”, O‘RQ – 938, 07.08.2024-yil <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>
5. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug‘i –“Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” – IIV – 403, 19.07.2025
6. O‘zbekiston Respublikasining 2025 yil 23 oktabr kunidagi “Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining jinoyat kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 1092-son qonuni/ <https://lex.uz/uz/docs/7788391>
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-532-son qonuni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.04.2019 y., 03/19/532/2873-son.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 10 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2015. – № 32. – [425](#)-m.
9. Д.Н.Умаралиева. Т.М.Шафиев. Значение и специфика организации сотрудничества органов местного самоуправления и Неправительственных организаций в работе с лицами, находящимися под контролем службы пробации. <http://newconference.ru/index.php/Russia/article/view/199>

10. Умаралиева Д.Н. Значение правового положения лиц, находящихся под пробационным контролем и возложенных на них обязанностей при исполнении наказаний не связанных с лишением свободы//https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAAJ:qjMakFHDy7sC

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2024 йил 5 декабрьдаги “Уй қамоғи эҳтиёт чораси қўлланилган ва озодликни чеклаш жазоси тайинланган шахсларни электрон браслет орқали масофадан туриб назорат қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги ВМҚ-813 сон қарори // URL: <http://lex.uz/docs/7249299>